



DUAL TA'LIMDA PEDAGOGIK TAMOYILLARNI QO'LLASH

Siddiqova Sadoqat G'afforovna –

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent, sadoqats@mail.ru*

Saidjonova Parvina Shuxratovna –

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi,
parvina.saidjanova@icloud.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, dual ta'lim sharoitida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotining o'qitish tamoyillari tahlil qilinadi. Maqolada dual ta'limning samarali amalga oshirilishiga yordam beradigan pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ularning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi muhokama qilinadi. Pedagogik texnologiya va ta'lim metodlarini amaliyotda qo'llash, shuningdek, o'qitish tamoyillarining dual ta'lim tizimidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu tadqiqot, o'qituvchilar va talabalarga samarali ta'lim tizimini yaratishda zarur bo'lgan pedagogik yondoshuvlarni va metodologiyalarni ishlab chiqish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, pedagogik texnologiya, o'qitish tamoyillari, ta'lim metodlari, o'qitish jarayoni, amaliyot, pedagogik yondoshuvlar, ta'lim tizimi, ta'lim nazariyasi.

Kirish. Pedagogik texnologiyalarning tamoyillari hamma davrlarda, har qanday o'qitish va tarbiyalash jarayonida mavjud bo'lgan, ammo, mazkur texnologiyalarni anglash va tanlash, boshqarish, pedagogikaning ham nazariyasi,



ham amaliyoti doirasidan chetda qolgan. Aslida ham oliy ta'lim muassasasi amaliyotida pedagogik texnologiyalarning tamoyillari moddiy vositalar sifatida kitoblardan, texnik jihozlardan, o'qitish metodikalaridan foydalanib kelingan yoki oldindan rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi faoliyati orqali amaliyotga joriy etilyapti [1]. Shu bilan birgalikda pedagogik texnologiya tamoyillari – ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi qator omillarni baholash imkonini beradigan ijodkorlik, yaratuvchanlik, fidoyilik, faoliyati natijasidir.

Ta'limda dual ta'lim shaklini joriy etish sharoitida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti o'qitish tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyillar o'quv jarayonini samarali tashkil qilish va talabalarning akademik va amaliy bilimlarini integratsiyalashtirishga yordam beradi. Ushbu tamoyillarni qisqacha mazmuni quyidagicha:

1. Integratsiyalangan o'qitish – bu dual ta'limda nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lanadi hamda talabalarning nazariy bilimlarni amaliy ishlarda qo'llash imkonini yaratadi.
2. Faol o'qitish usullari – talabalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv metodlar, guruhda ishlash, muammoli topshiriqlar kabi usullardan foydalanish muhimligini belgilovchi tamoyil.
3. Shaxsiylashtirilgan o'qitish – talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu talabalarning ixtisoslashuvi va karyeraga tayyorgarligini yaxshilaydi.
4. Ijodkorlik va innovatsiya – o'quv jarayonida talabalarning ijodiy va innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ularni yangi g'oyalar, loyihalar va yechimlarni ishlab chiqishga chorlashni ko'zda tutadi.
5. O'z-o'zini baholash va refleksiya – talabalarning o'qish jarayonida o'z faoliyatini baholash, refleksiv o'ylashni rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa o'quv samaradorligini oshirishga yordam beradi.



6. Muloqot va hamkorlik – talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqotni o‘rnatish, hamkorlikka asoslangan metodlarni joriy etishni ta‘minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda dual ta‘lim sharoitida pedagogik tamoyillarni amalga oshirish talabalarning bilim olishini va kelajakdagi kasb xususan, muvaffaqiyatli professional faoliyat yuritishini ta‘minlaydi [2].

Olimlarning ilmiy-nazariy xulosalariga ko‘ra “pedagogik texnologiya” tamoyillarini aniqlashda quyidagi holatlar e‘tiborga olinadi:

- ✓ mavjud jamiyat talabalariga mos keladigan ta‘lim-tarbiya maqsadi;
- ✓ didaktik jarayonning obyektiv konuniyatlari;
- ✓ ta‘lim-tarbiya jarayoni amalga oshadigan shart-sharoitlar.

Oliy ta‘limdagi ta‘lim-tarbiya jarayonini ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan integratsiyalash, dual ta‘lim jarayonini jadallashtirish va o‘qitish ishlarini optimallashtirish zaruriyatini tug‘diradi. Bu birinchidan, fan bilan ta‘lim o‘rtasida tafovutni ham miqdor jihatdan, ham sifat jihatdan maksimal darajada qisqartirishni, ikkinchidan, ta‘lim mazmunini qayta ko‘rishni, ya‘ni talabalar egallashi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar hajmi va murakkabligini kamaytirishni, buning uchun talabalarning o‘zini faol, mustaqil, ijodiy tafakkurini o‘stirishni, o‘z-o‘ziga baho berishini, o‘z-o‘zini tarbiyalashini talab qiladi. Bunga psixologik nazariyaning ta‘limotiga ko‘ra, dual ta‘limni yuqori darajadagi qiyinchilik asosida qurish, ma‘lumotni egallash sur‘atini o‘stirish nazariy va umumlashtiruvchi xarakterdagi ma‘lumotlar sonini ko‘paytirish, talabalarda faol, mustaqil, ijodiy tafakkurni o‘stirish masalalari nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti quyidagi tamoyillarga asoslanadi [4]:

1. Ta‘lim-tarbiya maqsadi, mazmuni va o‘qitish jarayonining yaxlitligi, birligi tamoyili. Bu tamoyil pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari ta‘lim



maqsadi, mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim metodlarini, shakl va vositalarini bir yo'nalishda, ya'ni yaxlit holda tashkil qilish lozimligini talab qiladi. Masalan, mustaqil respublikaninig yagona maqsadi – chuqur ilmiy bilimlar, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassis barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Bu maqsad tabiiyki, ta'lim tizimini o'zgartirdi, o'zgargan ta'lim tizimi esa ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim mazmunini, uni belgilab beruvchi hujjatlar o'quv reja, ta'lim dasturi asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratishga olib keldi va yaratilmoqda. Bu holat o'z navbatida yangi darslik, qo'llanmalar mazmunidagi axborotlarni, ma'lumotlarni yosh avlodga yetkazish yo'llarini, vositalarini yangilashni taqozo qiladi hamda ular yaratilib amalda qo'llanilgan taqdirda yagona maqsad, jamiyat buyurtmasi – barkamol avlodni tarbiyalash uchun shart sharoitlar yaratiladi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, shakl, metod vositalariga yaxlit holda yondashilsa, pedagogik texnologiyalar o'z maqsadiga erishadi.

2. O'quv-tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish va loyihani amalga oshirish tamoyili. Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. O'qituvchi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija yo'nalishida amalga oshirib, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qish-o'qitish masalalarini va ularni hal etish texnologiyasini loyihalash qonuniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzuiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar talabalar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak [5].

3. Ilmiylik, zamonaviylik va yakuniy natijani kafolatlanganlik tamoyili. Mazkur tamoyil tajribada sinalgan, yaxshi natija berishga mos bo'lgan ta'lim-tarbiyaning shakl, metod, vositalari orqali faol metodlarini doimiy ravishda ilmiylikka yo'llashni talab etadi. O'qituvchi-tadqiqotchi uzluksiz izlanishi



natijasida didaktik ma'lumotlarni oqilona qo'llash malakasiga ega bo'lishi mumkin. Maktab tajribasida ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni qo'llash zamonaviylikni e'tirof etadi.

4. Ta'lim-tarbiyada talaba manfaatining ustuvorligi tamoyili. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xarakterda bo'lish tamoyili mavjud. Bu tamoyil pedagogik texnologiyalar tizimida ta'lim-tarbiyada talaba manfaatining ustuvorligini ta'minlash tamoyilini joriy etishni taqozo qiladi. Shunga asosan, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq talabaning mustaqil o'qishi, mutoalaa qilishi, tahlil qilishiga e'tibor qaratilmog'i talab etiladi. Talabalar bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarida ularning qiziquvchanligi va tashabbuskorligini uyushtirish pedagogik texnologiyaning muhim yo'nalishlaridandir.

5. Pedagogik texnologiyada o'qitishning tugallanganlik tamoyili. Bu tamoyil talabadan har bir mavzuni o'qib o'rganganidan so'ng uni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lish uchun yangi mavzuni o'zlashtirishga kirishishini talab qiladi. Talabaning tajribalarini o'zlashtirish sifatini hamda o'zlashtirish koeffitsiyentini aniqlashni taklif etadi. Agar talabaning bilish ko'rsatkichi o'tish balidan yuqori bo'lsa, unda o'qitish o'z maromiga yetgan, yakunlangan, ya'ni talaba bilimga ega bo'lgan, uni amaliyotda qo'llash imkoniyati va ko'nikmalariga ega. Mabodo bilish ko'rsatkichi o'tish balidan past bo'lsa, ma'lumot to'liq o'zlashtirilmagan bo'ladi va bu holat korxonadagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Bu natija ta'lim maqsadiga va kutilgan natijaga erishilmaganligidan dalolat beradi.

Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi qoniqarli, yaxshi va a'lo baholar uchun yuqori qilib belgilangan. Pedagog olim N.Sayidaxmedovning fikricha, $B_k \geq 0,7$ bo'lsa, ya'ni talabalar tomonidan o'quv materiallarining hozirgi taraqqiyot bosqichi uchun yetarli. Ammo Respublika



Prezidenti tomonidan ilmiy asoslangan va koʻzda tutilgan “portlash effekti” uchun bu koʻrsatgich yetarli emas. Chunki, u keyingi taraqqiyot bosqichi uchun yetarli boʻlmaydi. Shuning uchun oʻzlashtirish koeffitsiyenti qancha yuqori boʻlsa, rivojlanishning qiymati shuncha yuksak boʻladi. Shunga koʻra olim qoniqarli koeffitsiyenti $B_k \leq 0,7$ deb belgilaydi, shunday qilib, talabning bilish koeffitsiyentining aniq belgilangan meʼyordan yuqori boʻlishi oʻqitishning tugallanganlik tamoyiliga javob beradi. Bu yangi pedagogik texnologiyaning muhim shartlaridan biridir [4].

6. Egiluvchanlik tamoyili. Yangi pedagogik texnologiya zamonaviy talab, ehtiyojlardan kelib chiqib, texnologik jarayon xususiyatlariga asoslanadi. Maʼlumki, davr, taraqqiyot, ishlab chiqarish oʻzgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega. Mavjud texnologiyalar mahsulot turiga qarab ishlab chiqarish qurollarini, ishchi oʻrinlarini oʻzgartirishga majbur boʻladi va u zudlik bilan oʻzgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat koʻrsatgichi egiluvchanlik deb ataladi. Taʼlim-tarbiya jarayonida ham davrning oʻzgarishi, taraqqiyotning yangi bosqichga oʻtishi munosabati bilan taʼlim va tarbiyaning maqsadi va vazifalarining oʻzgarishiga olib keladi. Bu oʻzgarish oʻz navbatida taʼlimning mazmunini, shaklini, metodlarini, vositalarini oʻzgarishiga olib chiqdi. Ular pedagogik texnologiyalarni oʻzgarishiga sabab boʻladi. Mazkur sabab oʻqituvchidan taʼlim jarayoni tuzilmasini tashhisli maqsadga muvofiq oʻzgartirish imkonini beradi. Bu yangi pedagogik texnologiyaning egiluvchanlik tamoyilining asosini tashkil qiladi.

7. Pedagogik jarayonni jadallashtirish yoki optimallashtirish tamoyili. Maʼlumki, keyingi yillarda ilm-fanning rivojlanish tezligi oʻzining eng yuqori koʻrsatgichlariga erishdi. Soʻnggi oʻn yilliklar mobaynida ilmiy faoliyat mazmuni sezilarli tarzda ortdi. XXI asrda olimlarning maʼlumot berishlaricha, insoniyat toʻla tarixi davomida toʻplangan bilimlarining $\frac{3}{4}$ qismi faqat shu davrda toʻplangan. Bu ilm-fanning tez rivojlanganligi, ilmiy-texnikaviy axborotlarning jadal



o'rganligidan dalolat beradi. Bu axborotlarning o'sish tezligi va hajmi nuqtai-nazaridan o'tgan 25-30 yildagi holatidan keskin farq qiladi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim nazariyasidagi ta'lim shakli, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish, ta'lim mazmuniga mos interfaol metodlarni tanlash o'qitishni mazmunan yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida talaba faoliyatini tashkil qilish, mustaqil o'qish, fikrlash, tahlil qilish, qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim. Shuningdek, o'qish-o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va texnik vositalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash malakasini o'qituvchi o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Bu albatta, o'qituvchidan ijorkorlikni, yangilikni anglay olish va undan aniq foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qaysi mavzuni qanday o'tishni, qanday ta'lim yoki axborot vositalar va ta'lim metodlaridan foydalanish ta'limga yuqori natijadorlik keltirishi mumkinligi haqida bosh qotirishi lozim.

Bunga faqat pedagogik texnologiyaning intensivlash va optimallashtirish tamoyili orqali erishiladi. Shunday qilib, yuqorida izohlangan pedagogik texnologiya tamoyillari ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda qurishga, dual ta'lim tizimining afzalliklari va imkoniyatlari negizida talabalarning ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish, tahlil qilish, korxonalarda egallagan ko'nikma va malakalarini shaxsiy mulkiga aylantirishga va shu asosda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi [6].

Xulosa va takliflar. Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti o'qitish tamoyillariga asoslanib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, dual ta'lim tizimining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur. O'qitish jarayonida pedagogik



tamoyillarni to'g'ri qo'llash, talabalarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashga yordam beradi va ularning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi. Dual ta'limni tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalar tamoyillarini o'rganish va uning muhim omillaridan dual ta'lim jarayonida foydalanish mutaxassislar tayyorlash sifatini yana bir pog'onaga ko'tarish imkonini beradi va bu zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi, zero, yuqorida ta'kidlanganidek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalar va o'qitish tamoyillaridan foydalanib talaba-yoshlarni o'qitish ishlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bakeyev, T. I. (2017). Dual ta'lim: nazariya va amal. Toshkent: Uzbekiston Davlat Pedagogika universiteti.
2. Po'latov, Sh. N. (2021). Shaxsiylashtirilgan ta'lim: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: Oliy ta'lim instituti.
3. Ruziyev, A. J. (2019). Dual ta'limning zamonaviy tendensiyalari. "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 2(1), 45-50.
4. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технология принциплари. - «Маърифат», 1999. – 45 б.
5. Султонова, М. А. (2020). Педагогик технологиялар ва уларнинг ўқитиш жараёнидаги аҳамияти. Тошкент: Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги.
6. Тухтаева З. Ш. Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси. – 2016.
7. To'xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). BO 'LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHALASH KO 'NIKMALARIGA QO 'YILADIGAN KASBIY TALABLAR. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(27).
8. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(3), 125-131.
9. Sharifovna, T. Z. (2019). ORGANIZATIONAL-METHODOLOGICAL INTER-OBJECTIVE INTEGRATIONS IN TEACHING SPECIAL DISCIPLINES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).